
“Koreya Respublikasida ta’lim olish – 2025” nomli ko’rgazma bo’lib o’tdi

Joriy yilning 25-26-aprel kunlari Toshkent shahridagi Koreya ta’lim markazida **“Koreya Respublikasida ta’lim olish – 2025”** nomli ko’rgazma bo’lib o’tdi. Mazkur ta’lim ko’rgazmasida Janubiy Koreya Ta’lim vazirining 1-o’rinbosari, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o’rinbosari Otabek Mahkamov, 50 dan ortiq OTM lar, akademik litsey talabalari hamda Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyining bir guruh o’qituvchilari bilan birgalikda talabalari ham ishtirok etishdi.

O’zbekiston va Janubiy Koreya o’rtasida ta’lim, ilm-fan va madaniyat sohalaridagi o’zaro hamkorlik, yosh avlodning do’stlik va kelajakka qaratilayotgan o’zaro hamjihatligi ikki davlatning umumiy manfaatlari yo’liga xizmat qilayotganidan dalolat beradi.

SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati